

**FRANSUZ VA O`ZBEK TILLARIDA AYRIM SINONIM  
SO`ZLARNING QIYOSIY TAHLILI**

*Aminova Marjona Dilshod qizi*  
*Samarqand Davlat universitetining Kattaqo`rg'on filiali talabasi*  
*Ro`ziyeva Nasiba Kenjayevna*  
*Ilmiy rahbar: Samarqand Davlat universitetining*  
*Kattaqo`rg'on filiali o`qituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada fransuz tili va o`zbek tillarida ayrim ma`nodosh so`zlarning ikki til doirasida qiyosiy tahlili misollar yordamida berilgan . Sinonimlar ya`ni ma`nodosh so`zlar har ikkala xalqning ham boyish manbai hisoblanadi.

**Kalit so`zlar:** sinonim, leksika, qiyosiy tahlil, sinonimik qator

**COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME SYNONYMS IN  
FRENCH AND UZBEK**

Aminova Marjona Dilshod qizi  
Student of Kattakurgan branch of Samarkand State University  
Ro`ziyeva Nasiba Kenjayevna  
Research advisor: Teacher of Kattakurgan branch of  
Samarkand State University

**ABSTRACT**

In this article , a comparative analysis of French and Uzbek words with the same meaning in the framework of the two languages is given with the help of examples. Synonyms are of wealth for both nations.

**Keywords:** Synonym, lexicon, comparative analysis, synonymous series.

**KIRISH**

Tilshunoslik olamida sinonimiya hodisasi juda keng qamrovli hodisadir. Sinonim so`zi aslida grekcha "synonima" so`zidan olingan bo`lib, bir xil ma`nodagi turli leksimalarni tushunamiz. Ma`nodoshlik hodisasi O`zbek tilida atroflicha o`rganilgan til birliklaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada O`zbek tilshunoslaridan A.Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, A. G`ulomov, E.Begmatov, Y.Tojiyev kabi olimlarning xizmatlari katta. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ham nazari tushgan hodisalardan biri bu sinonimiyadir. Navoiy turkiy tillarning ifoda imkoniyatlari haqida gapirar ekan, bir ma`noni darajalanishiga yoki holatiga qarab turib bir nechta so`z orqali berish mumkinligini , fors-tojik so`zlarida esa bunday imkoniyat yo`qligini aytib o`tadi. Qaysi

til bo'lmasin, qancha sinonimlarga boy bo'lsa, u til shuncha uzoq yashaydi. Ma'nodosh so'zlarga boy leksema nafaqat O'zbek tilining, balki hind- yevropa til oilasining roman guruhiga mansub Fransuz tilining ham asosiy til boyligidir. Tilshunos olimlar ssbiror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyati bilan birgalikda leksik boyligini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. O'quvchining so'z boyligini oshiruvchi eng muhim jihat bu sinonimik qatorlarni o'rganishdir. U nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan unumli foydalanish so'zlarning takroridan saqlaydi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi tilshunoslikda sinonimiya hodisalarini va ularning nutqiy amaliyotini o'rganishda turli xil shakl va usullar mavjud. Ularning orasida eng keng tarqalganlaridan biri bu- sinonimik so'zlar qatorini hosil qilishdir. So'zlovchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab bu qator ancha mukammal yoki ixcham bo'lishi mumkin. Til o'rganuvchi shaxs sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so'zlarni o'z lug'at boyligini sirasiga kirgizadilar. Shu bilan birga hozirgacha nisbatan kam ishlatilgan so'zlarning faollashishiga zamin yaratadilar. Fransuz va O'zbek tilidagi ayrim sinonimik qatorlarini o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilamiz.

**1. O'zbek tilida** "baqirmoq" fe'lining 20 dan ortiq sinonimlari uchraydi. Masalan: baqirmoq, qichqirmoq, chinqirmoq, hayqirmoq, shovqinlamoq, shovqin solmoq, vag'illamoq, shang'illamoq, o'shqirmoq, jekirmoq, o'dag'aylamoq, jar solmoq, og'iz ko'pirtirmoq, baqirib gapirmoq, dodlamoq, dod-faryod solmoq, faryod solmoq, big'illab yig'lamoq va h.z. U menga baqirib gapirdi. Bu gapda domenanta leksema ya'ni bosh so'z baqirmoq fe'lidir. Jekirmoq fe'li nisbatan eskirgan. Shang'illamoq, vang'illamoq fe'llari esa shevada qo'llaniladi.

**Fransuz tilida** ham "crier" ya'ni baqirmoq fe'lining 10 dan ortiq ma'nodoshlari bor. Masalan: crier-baqirmoq ma'nosidan tashqari, qichqirmoq ma'nosida ham qo'llaniladi, hurler-hayvonlarning uvullashi ma'nosida, hurlant, cri, grincement, faire du bruit, chuchoter, mature, ofille, coup de pied de voiture, rincebouche, pleurnicher va h.z. Il m'a crié dessus. Chuchoter fe'li fransuzlarda "o'shqirmoq", ma'nosidan tashqari "pichirlamoq" ma'nosida ham qo'llanilib, oddiy odamlar tilida ishlatiladi. "Faire du bruit" fe'li jamoat joyida shovqin solmoq ma'nosida qo'llaniladi.

**2. O'zbek tilida** sifat so'z turkumiga oid bo'lgan "chiroyli" so'zining ham ko'plab sinonimik qatorlarini uchratishimiz mumkin. Masalan, go'zal-badiiy uslubda qo'llaniladi, lotofatli, nozokatli, lo'bar, sohibjamol, latif, nozik, nozanin, sanam, yoqimli, muloyim, maftunkor, jozibador, jozibakor va h.z. Fransuz tilining go'zalligi butun dunyoni lol qoldirgan.

**Fransuz tilida** ko'pincha go'zal va chiroyli so'zlari o'rnida "beau" ishlatiladi. Beau so'zining sinonimik qatori quyidagilar: belle, jolie, poli, doux, mignon.

Maftunkor va jozibador ayollarga nisbat berishda ko`pincha “charmant” ishlatiladi. La beauté de la langue française a quitté le monde entier lol.

**3. O`zbek tilida** ancha vaqtlardan buyon yotib qolgan insonlarga nisbatan “xasta, bemor” so`zlari ishlatiladi. Uning dominant so`zi -kasal. Kasal so`zining ma`nodoshlari : nosog`, notob, og`riq. U betoblighi tufayli darsga kela olmadi

**Fransuz tilida** bosh so`z vazifasini “patient” leksemasi bajaradi. Uning sinonimi-douleur-xasta ma`nosida ishlatiladi. Il n`est pas venu en classe en raison de son caractere unique.

**4. O`zbek tilida** shaxsiyat tomonidan istiqomat qilinadigan turar joy ma`nosida quyidagi sinonimlar ishlatiladi. Uy, turar joy, vatan, hovli, otameros(mumtoz adabiyotda) qurilma(kontekstda), bino, xona, boshpana, kulba, xujra, koshona, saroy, qasr, qal`a kabilar. Saidaning uyi hashamatli edi.

**Fransuz tilida** esa “uy” so`zining ma`nodoshlariga la maison, hebergement (vaqtinchalik turar joy ma`nosida), cour, appart, batiment, chambre(xona ma`nosida), demeure, logement, palais(shohlarning uyi ma`nosida), cha`teau(qasr va qal`a ma`nosida) hutte(qambag`allar yashaydigan uy) kabilar ishlatiladi. La maison Saidaning e`tait luxueuse.

**5. O`zbek tilida** “yemoq” so`zining variantlari: taomlanmoq- badiiy uslubda, taom iste`mol qilmoq- badiiy uslubda, ovqatlanmoq -dominant, og`zaki uslubda ham ishlatiladi, tanavvul qilmoq-adabiy uslubda, xo`rak yemoq- shevalarda ishlatiladi. Men bugun onam bilan ovqatlandim.

**Fransuz tilida** "yemoq" -dominanta so`z o`rnida “manger” ishlatiladi. Uning sinonimlari quyidagilar: de`jeuner-ovqatlanmoq ma`nosida, pour etre aime` kabilar. Jai mange avec ma me`re aujourd`hui.

**6. O`zbek tilida** “o`quvchi” so`zining sinonimik qatorida quyidagilar kiradi: talaba, shogird, o`rganuvchi, havaskor. Men o`quvchiman.

**Fransuz tilida** esa bu so`z o`rnida lecteur(dominanta so`z), disciple, apprenant, `ecolier, `ele`ve, e`tudiant(talaba ma`nosida), amateur(havas qilib, qiziqib o`rganuvchi, havasmand) kabi ko`plab sinonimik qatorlari mavjud. Je suis un lecteur.

**7. O`zbek tilida** “mustahkam” so`zining barqaror, qattiq, muqum sinonimlari mavjud bo`lsa, Fransuz tilida “robuste” ya`ni mustahkam so`zi o`rnida, stable, solide, resistant, fort, indestructible kabi ma`nodoshlar qatori mavjud.

**8. O`zbek tilida** “kuzatmoq” fe`lining fransuz tilida quyidagi variantlari mavjud: observer, examiner, surveiller kabi.

Har bir tilda asrlar davomida u yoki bu sabablarga ko`ra sinonimlarning o`ziga xos qatorlari paydo bo`lishi mumkin. Ma`nodosh so`zlar - barcha tillarning leksik boyligidir. Undan qancha unumli foydalanilsa, fikrni ravon va go`zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so`zdan tog`ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi. Sinonim ustidagi ishlar til o`rganuvchilarning nutq boyligini oshiradi,

ularning bitta ma'noni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikrni nisbatan aniq va lo'nda ifodalashga o'rgatadi.

### **XULOSA**

Yangi til o'rganuvchilar mustaqil fikrlashni, leksik ma'no belgilarini farqlashni o'rganishi, gapda so'zlarni o'rnini aniqlashini osonlashtiradi, undan sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyati mavjudligini angelaydi va qaysi leksema qayerda qo'llanilishini ongli ravishda aniqlay oladi va og'zaki va yozma nutqida takrorga, bir xillikka yo'l qo'ymaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent . FAN. 1984
2. A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining lug'ati. Toshkent . O'qituvchi. 1974
3. H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent . Oqituvchi. 1995
4. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili . Toshkent. 1992.
5. A.E. Mamatov, M.M . Mirxoliqov, A.S. Asqarov . Fransuz tilining amaliy gramatikasi. Toshkent . 2015
6. X.Ibragimov, U.Mansurov, A. Mamadaliyev , A. Nishonov, E. Soatjonov , N. Unbarov. Dictionnaire francais-ouzbek. Toshkent. Nihol. 2008.
7. B. To'xliyev , M. Shamsiyeva , T. Ziyodova . O'zbek tili o'qitish metodikasi . Toshkent -2010.
8. R.Jumaniyozov. Sinonimlar ta'rifi masalasi. O'zbek tili vadabiyoti. 1970
- 9.Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION TECHNOLOGY. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3), 15-17.
- 10.Ruziyeva, N. (2022). ESPECIALLY THE WORDS THAT HAVE BEEN ADAPTED FROM FRENCH TO UZBEK. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(6).
- 11.Kenjaevna, R. N. (2022). LITERARY ANALYSIS OF "FATHERS AND CHILDREN". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 271-277.
- 12.Kenjaevna, R. N. (2023). USING GAMES AND FREE LANGUAGE LEARNING APPS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES THROUGH NEW INNOVATIVE APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(1), 304-308.
- 13.Kenjayeovna, R. N. (2023). ABOUT THE WORDS ADOPTED FROM THE FRENCH LANGUAGE INTO THE UZBEK LANGUAGE. Science and innovation, 2(C4), 109-113.
- 14.Kenzhaevna, R. N., & Abdukhaliqovna, M. K. (2023). Active and interactive methods of learning: review, classifications and examples. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior, 14(2), 246-258.
- 15.Ikromovna, M. M. (2023). THE PRESENCE OF A PARADOX IN EVELYN WAUGH'S WORKS. Conferencea, 14-16.
- 16.Ikromovna, M. M. (2022). SATIRICAL APPROXIMATION USED IN ENGLISH LITERATURE. Conferencea, 90-95.
17. Ikromovna, M.M. (2023) Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education. 2 (4), 366-370.
18. Ikromovna, M.M. (2023) Ivlin Vo va Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahorati Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi 6 (4), 273-275
19. Ikromovna, M.M. (2023) Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini Til va adabiyot ta'limi 5 (4), 116-117.